

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Normurodova Qunduz Tursunovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: qunduznormurodova7@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mingnorov Abduholiq Toshmirzayevich

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Bugungi kunda ijodkorlik — shaxsning muhim mezonini, uning har tomonlama rivojlanish omilidir. Shu sababli davlat ta'lim siyosatida ijodkorlikka intellektual darajada alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston ta'lim siyosatida ta'lim oluvchilarning asosiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida shaxsning ijodiy salohiyatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Ayniqsa, intellektual-ijodiy tafakkurni rivojlantirishga alohida urg'u beriladi. Chunki bugungi kunda dadil, noodatiy, ijodiy, tashabbuskor, konstruktiv va innovatsion fikrlash talab etilmoqda.

Kalit so'zlar: original, ijodiy, tashabbuskor, konstruktiv, innovatsion, ta'lim, rivojlanish, asosiy sifat, daraja, tafakkur.

Аннотация. Сегодня креативность — важный критерий личности, фактор её всестороннего развития. Поэтому в государственной образовательной политике креативность — на интеллектуальном уровне, естественно, на информационной основе, — сейчас уделяется особое внимание активной креативности. В образовательной политике Узбекистана среди развития базовых качеств и способностей, которые формируются в процессе обучения, выделяется креативность — творческий потенциал личности. Особое внимание уделяется интеллектуальному творческому мышлению. Это вполне законно, поскольку сегодня требуется новое мышление — смелое, оригинальное, креативное, инициативное, конструктивное, новаторское.

Ключевые слова: оригинальность, креативность, инициативность, конструктивность, новаторство, образование, развитие, базовые, качество, уровень, мышление.

Annotation. Today creativity - the important criterion of the person, the factor of its complete development. Therefore, in the state educational policy of creativity - at intellectual level, naturally, on an informative basis, the especial attention now is given to active creativity. In the educational policy of Uzbekistan among development of the basic qualities and abilities trained are allocated creative - creative potential of the person. With especial attention to is intellectual creative thinking. That is quite lawful, as the new thinking - courageous, original, creative, initiative, constructive, is innovative-innovative today is required.

Key words: original, creative, initiative, constructive, innovative, education, development, basic, quality, level, thinking.

KIRISH

Ta'lim nazariyasi va amaliyotining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatda yuz

berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga moslasha oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega, inson faoliyatining turli sohalarida o‘z salohiyatini namoyon eta oladigan ijodkor shaxslarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda an’anaviy hamda noodatiy intellektual-ijodiy tafakkurga ega shaxslarni tarbiyalash muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ijodkorlik XXI asr fuqarosining muhim mezon bo‘lib, shaxsning umumiy rivojlanish darajasini belgilovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, yosh avlodning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining muhim vazifasi sifatida belgilangan. Xususan, ta’lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ta’lim oluvchilarning mustaqil, kreativ va konstruktiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, kadrlar tayyorlash tizimini yangilash, demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish hamda fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari asosida ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ijodiy-intellektual hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mazkur jarayonni ta’minlovchi samarali pedagogik shakl va metodlarni ishlab chiqish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogning ijodiy sifatlarga ega bo‘lishi uning shaxsiy imkoniyatlari, tabiiy hamda ijtimoiy salohiyatini kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ijodkorligi ta’lim jarayonini an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda tashkil etish, yangicha pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish, qoliqli fikrlashdan voz kechish, tashabbuskorlik ko‘rsatish hamda noaniqlik sharoitida samarali faoliyat yurita olishni ta’minlaydi.

Mazkur jarayon Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan pedagog kadrlarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Strategiyada pedagoglarning kreativ salohiyatini oshirish, ularning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim jarayonida

ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

Ijodkor pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda kreativ yondashuvni namoyon etadi, talabalarning o'quv faoliyati va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik g'oyalarni ishlab chiqadi, zamonaviy pedagogik tajribalarni mustaqil o'rganadi hamda hamkasblari bilan doimiy ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu holat ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogning ijodiy qobiliyati uzluksiz ta'lim va mehnat faoliyati jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi hamda rivojlanadi. Ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli masalalarni hal etish, pedagogik xarakterdagi ijodiy mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turlariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ushbu yondashuv pedagogning kasbiy o'sishi va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlarni ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimiz kelajagi ijodiy fikrlovchi yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash, yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqori sinf o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida ularning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim metodik ahamiyatga ega. Shu maqsadda suhbat, anketa, test hamda boshqa diagnostik vositalar yordamida o'quvchilarning mavjud ijodiy darajasini aniqlash, ularning individual imkoniyatlarini baholash zarur hisoblanadi. Olingan natijalar asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini aniqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liqdir. Strategiyaga muvofiq, ta'lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishni davlat darajasidagi muhim masala sifatida belgilash, ushbu jarayonga barcha manfaatdor tomonlarning mas'uliyatini oshirish talab etiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni davlat miqyosidagi ustuvor vazifa sifatida amalga oshirish;
- ta’lim muassasalari rahbariyatining mazkur masalaga nisbatan boshqaruv va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- sinfdan tashqari ta’lim faoliyatlarini faollashtirish orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish;
- pedagoglar va olimlar tomonidan ijodkorlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish;
- pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslarni joriy etish;
- mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli tashkil etish.

Bundan tashqari, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy madaniy merosni asrash va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish vazifalari belgilangan bo‘lib, bu yuqori sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tarixiy va madaniy obidalar asosida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi ijodiy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- me’moriy-badiiy obrazlarni tasavvur qilish;
- mavjud obrazlarni to‘ldirish va ijodiy o‘zgartirish;
- obidani yaxlit holda va alohida qismlar asosida idrok etish;
- obidalariga zamonaviy nuqtayi nazardan baho berish;
- ijodiy g‘oyalarni yozma, og‘zaki hamda tasviriy shakllarda ifodalash.

XULOSA

O‘quvchilarning ijodiy-intellektual qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish yuqori darajadagi nazariy hamda amaliy tayyorgarlikni talab etuvchi murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon ta’lim tizimida ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo‘llash, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali samarali tashkil etiladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim sohasini rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Strategiyada ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish orqali shaxs manfaatlarini ta’lim markaziga qo‘yish, o‘quvchilarning erkin fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijodiy faolligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi. Bu holat o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy madaniy-tarixiy meros asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish zamonaviy, ijodkor va barkamol shaxsni

shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim mazmunining uzluksiz yangilanib borishi, innovatsion pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi hamda ijodiy-intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitining yaratilishi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Национальная программа по подготовке кадров /Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Т.:Шарк, 1997. – 32-61 б.
2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар Стратегияси. strategy.regulation.gov.uz/uz/document/
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИППО, 1995.– 386 б.
4. Каткин М.Н. Школа и всестороннее развитие детей /Кн. для учителей и воспитателей. – М.: Просвещение, 1980.–144 б.
5. Очилов. Независимость: духовность и основы воспитания (Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти, академик И.А.Каримов асарлари мисолида): Пед. фанлари докт. дисс. автореф. – Т., 1998.– 47 б.
6. Karaev, S. B. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(01), 1734-1742.
7. Oripova, K. (2022). The role and main tasks of linguocultural science in contemporary linguistics.
8. Oripova, K. (2022). Lexical and semantic analysis of antonyms in artistic discourse.
9. Oripova, K. (2022). The prevalent problems are encountered by most students in learning English speaking.
10. Oripova, K. E. "Semantic and semic analysis of antonyms." *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84) (2020): 724-726.
11. Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna, & Yormatova Shahnoza G'ulomovna. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, 9. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.9.229>.
12. Tojiboeva, S. K., Abdullaev, A. K., & Abdullaeva, N. R. (2020). Gender analysis of zoonyms in English and Uzbek. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2 (10), 301-305.
13. Rokhataliyevna, Abdullayeva Nargiza, and Abdullayev Alibek Kadiraliyevich. "Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies." *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning* 3.7 (2022): 1-5.44.
14. Rokhataliyeva, Abdullayeva Nargiza. "Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.7 (2022): 50-55.
15. Rakhimova, G. (2020). Severe consequences of environmental problems in the Surkhandarya region.
16. Рахимова, Г., & Баязкулов, А. (2015). Экологические проблемы Наманганской области в период царской России и советов. *Достижениявузовскойнауки*, (14), 18-22.
17. Рахимова, Г., & Рахматуллаева, И. (2016). The casualties chemilization of agriculture of Fergana Villager. 1950–1985 years. *Молодой ученый*, (11), 1120-1122.